



I. XIZMATLAR

2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 15 095 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

2021-yil 1-oktabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 12 889 tasi yoki 85,4 foizi kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi.



2021-yil yanvar-sentabr oylarida **bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari** bo'yicha hajmi 5 213,4 mlrd. so'mni yoki 2020-yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish 116,2 foizni tashkil etdi, shu jumladan qishloq joylarida 1 057,6 mlrd. so'm yoki umumiy ko'rsatilgan xizmatlar hajmining 20,3 foizini tashkil qildi.

Navoiy viloyatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Jami xizmatlar hajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Axoli jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (ming so'm)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>shundan,</i>		
					<i>Kichik biznes xajmi (mlrd. so'm)</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Ulushi, % da</i>
Jami	5 213,4	116,2	5 106,1	114,2	3 016,9	113,8	57,9
Navoiy sh.	1 830,8	118,5	12 353,6	116,0	608,3	112,6	33,2
Zarafshon sh.	666,0	115,1	7 817,4	113,9	366,1	109,9	55,0
Karmana	783,5	116,8	6 040,6	113,9	472,9	113,5	60,4
Konimex	133,4	113,0	3 666,0	111,1	115,2	113,7	86,3
Qiziltepa	490,0	116,3	3 163,0	114,6	387,8	117,3	79,1
Navbahor	333,8	113,3	2 890,4	111,3	258,1	114,4	77,3
Nurota	252,8	113,2	2 669,3	111,3	213,9	114,0	84,6
Tomdi	75,5	111,1	4 966,4	108,2	68,3	110,9	90,5
Uchquduq	189,4	113,9	4 996,3	112,4	155,4	114,3	82,1
Xatirchi	458,2	114,5	2 253,8	112,7	370,9	116,1	80,9




Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>	<i>yakunga nisbatan, % da</i>
Jami xizmatlar	5 213,4	116,2	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmati	214,1	115,9	4,1
moliyaviy xizmatlar	1 223,7	129,0	23,5
transport xizmati	908,5	114,7	17,4
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
yashash va ovqatlanish xizmatlari	191,2	108,1	3,7
savdo xizmatlari	1 603,0	105,6	30,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	102,4	118,2	2,0
ta'lim sohasidagi xizmatlar	154,7	132,1	3,0
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	60,3	120,3	1,2
ijara va prokat xizmatlari	90,4	127,7	1,7
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	85,0	119,5	1,6
boshqa shaxsiy xizmatlar	129,2	114,8	2,5
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	251,3	128,8	4,8
boshqa turdagi xizmatlar	199,6	115,0	3,8

Bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari

(2020-yil yanvar-sentabrga nisbatan)



Ta'lim sohasidagi xizmatlar (132,1 foiz), moliyaviy xizmatlar (129,0 foiz), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (128,8 foiz), ijara va prokat xizmatlari (127,7 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,3 foiz), ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (118,2 foiz) aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (115,9 foiz) da o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Xizmatlar ishlab chiqarish tarkibi

(2021-yil yanvar-sentabr oylari)



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo (30,7 foiz), moliyaviy (23,5 foiz), transport (17,4 foiz), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (4,8 foiz) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (4,1 foiz) ga to'g'ri keldi.


**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**

	<i>ming so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>
Jami xizmatlar	5 106,1	114,2
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmati	209,7	113,9
moliyaviy xizmatlar	1 198,5	126,7
transport xizmati	889,8	112,7
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>		
yashash va ovqatlanish xizmatlari	187,3	106,3
savdo xizmatlari	1 570,0	103,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	100,3	116,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	151,5	129,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	59,0	118,2
ijara va prokat xizmatlari	88,6	125,5
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari	83,3	117,4
boshqa shaxsiy xizmatlar	126,6	112,8
me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	246,1	125,6
boshqa turdagi xizmatlar	195,4	113,0

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar 2021-yil yanvar-sentabr oylarida 5 106,1 ming so'mni yoki 2020-yil yanvar-sentabrga nisbatan o'sish sur'ati 114,2 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmida savdo xizmatlari (1 570,0 ming so'm), moliyaviy xizmatlar (1 198,5 ming so'm) hamda transport xizmatlari (889,8 ming so'm) yuqori ulushni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari




Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmida ta'lim sohasidagi xizmatlar (129,8 foiz), moliyaviy xizmatlar (126,7 foiz), me'morchilik, sohasidagi xizmatlar (126,5 foiz), ijara va prokat xizmatlari (125,5 foiz), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (118,2 foiz), kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarida (117,4 foiz) o'sish sur'ati yuqori bo'ldi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Navoiy shahri yetakchi o'rinni egalladi. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 12 353,6 ming so'mga yetdi. Zarafshon shahar (7 817,4 ming so'm) va Karmana (6 040,6 ming so'm) tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi kamaygan.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1 064,5 mlrd. so'mga oshdi. 2021-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan xizmatlar hajmi 765,2 mlrd. so'mga ko'paydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so'm



Xizmatlar hajmida katta ulushga ega bo'lgan sohalar

<i>T/r</i>	<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
	Jami - xizmatlar	5 213,4	116,2	100,0
1	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	214,1	115,9	4,1
	shundan:			
	Nashriyotchilik xizmatlari	1,8	144,2	-
	Kino-videofilmlar va televideniye dasturlari ishlab chiqarish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish bo'yicha xizmatlar	0,1	132,4	-
	Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	0,8	119,1	-
	Telekommunikatsiya xizmatlari	205,1	115,2	-
	Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	4,1	143,0	-
	Axborot sohasidagi xizmatlar	2,2	123,7	-

<i>T/r</i>	<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>Hajmi mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
2	Moliyaviy xizmatlar	1 223,7	129,0	23,5
	shundan:			
	Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	1142,7	129,6	-
	Sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlar, majburiy ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha xizmatlardan tashqari	58,5	100,6	-
	Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlar	22,5	250,7	-
3	Transport xizmatlari	908,5	114,7	17,4
	shundan:			
	Quruqlikdagi transport xizmatlari va quvurlar orqali yetkazib berish bo'yicha xizmatlar	776,0	110,0	-
	Omborga joylashtirish xizmatlar va yordamchi transport xizmatlari	126,5	151,3	-
	Pochta va kurerlik xizmatlari	6,0	144,4	-
4	Savdo xizmatlari	1 603,0	105,6	30,7
	shundan:			
	shu jumladan:avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar; avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	139,8	126,3	-
	Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)	133,7	85,6	-
	Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar	1 329,5	106,2	-
5	Boshqalar	1 264,1	122,8	24,2

Savdo xizmatlari tarkibi
(2021- yil yanvar-sentabr oylarida)



2021-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 223,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati esa 129,0 foizni tashkil etdi.

2021-yil yanvar-sentabr oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibi



Huddi shunday, savdo xizmatlaring hajmi 1 603,0 mlrd. so‘mga yetib, ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo xizmatlari umumiy savdo xizmatlari hajmining 82,9 %, ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlari esa 8,4 %, ulgurji savdo bo‘yicha xizmatlari (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) bo‘yicha xizmatlar, 8,7 % ni tashkil etdi.